

*Har kuning Navro‘z bo‘lsin jonajon O‘zbekistonim!*

# IJODIY PARVOZ

2023-yil mart № 3 (118) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi\_uz



O‘zbekiston davlat san’at  
va madaniyat institutining  
ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy,  
ijtimoiy gazetasi

**“Kelajak uchun ovoz ber!”**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
**REFERENDUMI**

**2023**



Eldor SHERMONOV,  
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori v.b.,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

## YANGILANAYOTGAN KONSTITUTSIYA – BARQAROR TARAQQIYOT KAFOLATI

Mamlakatimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy vogelik arafasida  
turibdi: 30-aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi  
to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni  
loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumi o’tkaziladi.

Albatta, hammamiz juda yaxshi bilamiz, O‘zbekistonda 2016-yildan  
boshlangan islohotlar o‘zgacha ko‘lam va mazmun kasb etdi. Natijada  
erishgan yutuqlarimiz, islohotlarning ortga qaytmasligi, ularning  
ishonchli konstitutsiyaviy himoyasini ta’minlash, ushbu erishilgan  
natijalar, huquq va erkinliklardan kelajak avlodlarimiz emin-erkin  
foydalanishi uchun ularni Konstitutsiyada muhrlab qo‘yish zarurati  
tug‘ildi. Ayni paytda, bugun nainki mamlakatimiz, balki global miqyosda  
kechayotgan o‘zgarishlar ham asosiy qonunimizga o‘zgartirishlar  
kiritishni taqozo etdi. Zero, xalqning munosib hayot kechirishi, farovon  
va baxtli yashashida, davlat taraqqiyotida uning huquqiy asosi muhim  
ahamiyatga ega. Zalvorli maqsadilar, ehtiyojlar esa Konstitutsiyani  
yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Xususan, yangi O‘zbekistoni  
barpo etishda yangilanayotgan bosh qomusimiz yorqin istiqbolga jiddiy  
qadam bo‘la oladi.

Darvoqe, biz bugun to‘liq ishonch bilan yangilanayotgan  
Konstitutsiyamizni xalqchil Konstitutsiya, deb aytayapmiz. Chunki  
mazkur qomusiy hujjat xalqimiz tomonidan bildirilgan 220 mingdan  
ziyod takliflar asosida yangilandi va to‘ldirildi. Konstitutsiyamizning 128  
ta moddasining 91tasida kontseptual o‘zgarishlar amalga oshirilgan  
bo‘lsa, unga 27 ta yangi modda kiritildi.

Yana bir quvonarli jihat shundaki, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ➔



## Navro‘zi olam falsafasi

“Oyning o’n beshi qorong‘u, o’n beshi yorug”, deganlariday  
qishning sovuq izg‘irinli kunlaridan so‘ng, tabiatning iliq tuhfasi  
bo‘lib fasllar kelinchagi bahor kirib keladi. Iliq shabadalar, muzlarning  
erishi, yer bag‘rini yashillik burkashi, qushlarning issiq o‘lkalardan  
qaytishi bahor kelganligidan darak beradi. Insonlar bahor darakchisi  
bo‘lgan boychechaklarni ko‘zlariga tabarruk qilib surishadi va bu  
kunlarga yetganlariga shukronalar aytishadi. Bu esa yana hayot davom  
etayotganligini bildirib, insonlarga o‘zgacha kayfiyat baxsh etadi, hayotga  
bo‘lgan mehrni oshiradi.

Navro‘z bayramining paydo  
bo‘lishi to‘g‘risida turli rivoyatlar  
mavjud bo‘lib, Abulqosim Firdavsiy  
o‘zining “Shohnoma” asarida  
uni shoh Jamshid nomi bilan  
bog‘laydi. Abu Rayhon Beruniy  
“Osor ul-boqiya” kitobida ma’lumot  
berishicha, bayram farvardinining  
oltinchi kuniga qadar davom  
etgan. Sosoniy podsholari olti  
kunda olti toifa xalqni qabul  
etganlar va tortiqlar ulashganlar.

Navro‘z bayrami kuni mahbuslarni  
ozod qilish an’anasi ham bo‘lgan.  
Umar Hayyomning “Navro‘znomha”  
kitobida yozilishicha, Navro‘z  
bayrami o’tkazishning maxsus  
tartib-qoidasi bo‘lgan. Uy-  
joylarni tozalash, ko‘kat va gullar  
bilan bezash, ota-ona, yaqin  
qarindoshlar bilan diydorlashish,  
marhumlarning qabrini ziyorat  
qilish kabilalar xalq orasida keng  
odat tusiga kirgan. ➔



Hilola ABDUJABBOROVA,  
O‘zDSMI “O‘zbek tili va  
adabiyoti” kafedrasи  
o‘qituvchisi

Ezgulik uzoq-uzoqlarda,  
olisdam? Men oqko‘ngil,  
yaxshilik ularashuvchi  
inson bo‘lmoqchiman. Bas,  
yaxshilik o‘z qo‘lingda!

KONFUTSIY

Bizning  
tarbiyachilarimiz,  
tabiblarimiz,  
muallimlarimiz ham shu  
ayollarimizdir.

FITRAT

Yurakning maslahatiga amal  
qilib gapirilganda gap yolg‘on  
chiqmaydi. Yurakning aytganiga  
kirmay, nafsning buyurganini  
qilsang, so‘zsiz adashasan.

ABAY



# Navro'zi olam falsafasi

1

Boshqa xalqlar singari o'zbeklar ham bu kunni qadim zamonlardan buyon yangi yilning boshlanishi sifatida quvonch bilan qarshi olgan. Tojik va eron xalqlarida bayram dasturxoniga nomi "s" harfi bilan boshlanadigan yetti xil taom qo'yish (haftsin) odati bor. Bu bayramni nishonlash uchun hamma bir necha kun avval tayyorgarlik ko'radi. Odatda, bir necha kun avval undirishga qo'yilgan bug'doydan ayollarimiz sumalak taomini tayyorlashadi. Erkaklar ham undirilgan bug'doy va go'shtdan bir kun davomida halim taomini pishirishadi. Bundan tashqari, barra ismalloq, yalpiz kabi bahoriy ko'katlardan ko'k somsa, ko'k chuchvara kabi tansiq taomlar ham tayyorlanadi. Qishdan horg'in chiqqan inson tanasiga bu kabi taomlar haqiqiy quvvat baxsh etadi.

Bayram kechasi yoshlari tonggacha uxlamasdan turli ertak va hikoyalari aytib, o'yn-kulg'i bilan kutib olishgan. Bayramning birinchi kuni otchopar, ko'pkari, uloq kabi sport o'yinlari o'tkazilgan. Xalq sayillarida turli dorbozlik, masxarabozlik, askiya kabi xalq tomoshalari namoyish etilgan. Bu bayram nafaqat yangi yil, balki dehqonchilikning ham boshlanish bayrami sanalgan.

Solim bahor va Navro'z tarovati hamisha shoirlar va san'at

ahliga ilhom baxsh etib kelgan. Adabiyotimizda "Navro'znomalar" yozish an'anasi shakllangan, deyarli barcha ijodkorlar Navro'zga atab ash'orlar bitishgan. Misol tariqasida Alisher Navoiyning quyidagi baytini keltirishimiz mumkin:

*Vasli aro, ko'rdim, teng emish  
bo'y-iyu sochi,  
Tun-kun teng ekan zohir o'lur  
bo'ldi chu navro'z.*

Mazkur bayt misolida, Navoiy davrida ham "navro'z" termini faol bo'lganligini bilishimiz mumkin. O'sha davrda ham mazkur so'z aynan o'z ma'nosida qo'llangan. Navro'z – quyosh yili hisobida yangi yil va bahor faslining birinchi kuni hisoblanadi. Mustabid tuzum davrida bu bayramga eskilik sarqiti sifatida qaraldi, uni nishonlash taqiqlandi. Aslida, bu bejiz emas edi. Insoniylik, mehrmuhabbat, oqibat, poklanish kabi ezgu g'oyalarni tarannum etuvchi bayram har qanday qaram xalqni ozodlikka undashi, turkiy xalqlarni birlashtirishi mumkin edi. Bu esa, sovet g'oyaligiga putur yetkazishi kunday ravshan edi. Shu sababli, Navro'zga nisbatan kuchli qarshiliklar bo'lgan.

Hali mustaqillikka erishmay, 1990-yilda yurtimizda uzoq yillik taqididan so'ng ilk bor Navro'z bayrami keng nishonlandi. Bu

mustaqillikka tashna xalqning istiqlol epkinlarini his qilishi, bu yo'lda jipslashishga muhim qadam edi. Shukurlar bo'sinski, Navro'z bayrami qadriyat sifatida hozirgi kunga qadar mutazam Respublika miqyosida keng nishonlanib kelmoqda. Biz Navro'zni nishonlash asnosida o'zligimizga qaytdik, milliy an'ana va qadriyatlarimiz qayta tiklandi, xalqning milliy qiyofasi qayta bo'y ko'rsatdi.

Navro'z shunchaki oddiy bir bayram emas. U Sharq xalqlarining egzulik, insonparvarlik, adolat, tinchliksevarlik, bonyodkorlik kabi ezgu g'oyalari, ularning qadimiylar boy ma'naviyati in'ikosidir. Tevarak-atrofni hashar yo'li bilan tozalash, yangi ko'chat va gullar ekish, urishganlarning yarashishi, bemor, keksa yoshdagilar, ota-onalari, yaqin qarindoshlarning holidan xabar olish, qabristonlarni obod qilish va o'tganlarni xotirlash, birqalikda bayram sayillari tashkil etish, turli Navro'z taomlari bilan dasturxonni to'ldirish va boshqalarga ham ulashish, bularning barchasi egzulik va jipstik ramzidir. Navro'z – dono xalqning kuchli falsafasi ramzidir. Shu sababli ham u, shuncha to'siqlarni yengib o'tib, hozirgi kungacha qadimiylar qadriyat sifatida o'z qimmatini yo'qotmadi va yo'qotmaydi ham.

## Navro'z shodiyonasi

**Navro'z – navbahor bayram.** Fors va turkiy xalqlarda yangi yilning birinchi kuni hisoblanadi. "Navro'z" so'zi forschanan tarjima qilinganda, "yangi kun" ma'nosini beradi. Eron, shuningdek, Markaziy Osiyo va Kavkazda navro'z 21-mart kuni, Qozog'istonda esa 22-martda nishonlanadi. Bu bayram Shimoliy yarimsharda bahorning boshlanishi sifatida, kecha-kunduz tenglashgan kunda, martning 21-sanasida boshlanadi. Ba'zi xalqlar bahor faslining kelishini tabiatning uyg'onishi bilan bog'laydi.

**Saida ERGASHEVA,**  
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lif yo'naliishi  
3-bosqich talabasi



**Navro'z** – bahorning eng go'zal bayramidir. Bu bayramning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Navro'zni bayram qilish turkiy xalqlarda eng katta bayramlardan bira hisoblangan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida Navro'zga bag'ishlangan ko'plab xalq qo'shiqlari keltirilgan. Bu haqda buyuk allomalarimizdan bo'lgan Abu Rayhon Beruniy ham o'zining "**Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar**" asarida batafsil to'xtalib o'tgan. Beruniy Quyosh yili hisobida yangi yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to'g'risida so'zlab: "**Bu oyning birinchi kuni Navro'zdir**", – deydi. "Navro'z yilning birinchi kuni bo'lib, uning forscha nomi ham shu ma'noni anglatarkan. Navro'z eronliklar "zij"lari bo'yicha o'tmish zamonlarlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo'ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullahidan mevalari yetilgunicha, o'simlik unib chiga boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtida keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiha dalil qilingan", – deya izohlaydi.

Bayramning birinchi soatlari oila-oila bo'lib keksalarni, qo'shnilarini, yordamga muhtoj oilalarni va nogironlarni

yo'qlash bilan boshlanadi. Mehmondorchilik chog'ida odamlar bir-biriga sovg'alar ulashadi. Ayniqsa, yosh bolalar va kelin-kuyovlarga sovg'a ulashish odati bo'lgan. Bayramning eng muhim nishonalaridan bira, bu dasturxon bo'lib, unga ramziy buyumlarga mos taomlar qo'yildi. Buyumlar tozalik, nur, tinchlik va boylikni anglatadi. Navro'z bayrami bilan bog'liq xalq o'yinlari juda ham qiziqarlidir. Bolalar ishtirokida "Besh tosh", "Varvak", "Arqon tortish," "Chillak", "Xo'roz jangi" kabi rango-rang milliy o'yinlar o'zining jozibasi, estetik zavq berishi bilan birga, bolalarni axloqiy, jismoniy va ruhiy tarbiyasidagi o'mni beqiyosdir. Shuningdek, bu bayram bilan bog'liq xalq sayillarida kurash, dorbozlarining turli dor o'yinlari bilan chiqishlari, ko'pkari singari milliy o'yinlarning ham asrlar davomida xalqimizning milliy qadriyatlarga boy xalq ekanligidan dalolatdir.

Qadim zamonlardan boshlab O'zbekiston, Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, Tojikiston va yana ko'plab sharqiy o'lkalarda insonlar, navbahor – yangi yilning kelishini bayramona qarshi oladi. Martning 21-sanasи, Eron va Afg'onistonda rasmiy taqvimning dastlabki birinchi kuni hisoblanadi. 2009-yil 30-sentabrda Navro'z UNESCO tarafidan nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan. 2010-yil 23-fevralda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida, 21-mart "**Xalqaro Navro'z kuni**" deb e'lon qilindi. Hali ham bu bayram xalqlar o'rtaida keng ko'lamma davom etib kelmoqda.

## YANGILANAYOTGAN KONSTITUTUSIYA – BARQAROR TARAQQIYOT KAFOLATI

1 yuzasidan kelib tushgan 220 mingdan ortiq taklifning 60 foizidan ortig'i bevosita yoshlari tomonidan berilgan! Shuning uchun ham yangilanayotgan Konstitutusiyada yoshlarga oid qator normalar, bitta alohida bob "Oila, bolalar va yoshlari" masalasiga bag'ishlandi. Konstitutusiyaviy qonun loyihasi bilan ilk marotaba uzluksiz ta'lif tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lif tashkilotlari rivojini ta'minlash davlatning vazifalari qatoridan joy olmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston – yoshlari mamlakati, yoshlarga alohida g'amxo'rilik qilinadigan mamlakatdir. Shu bois Konstitutusiyaviy qonun loyihasida fuqarolarning oly ta'lif muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish huquqi qat'iy belgilab qo'yilmoqda. Ma'lumki, 2017-yilgacha oliygochlarda o'qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo'lsa, oxirgi olti yilda bu boradagi ahvol butunlay o'zgardi. Grantlari soni 2 baravar ko'payib, 40 mingtaga yetdi. Asosiy qonun loyihasida fuqarolarning bepul boshlang'ich kasbhunarga o'qitilishi ham belgilanayotgani aytib o'tilgan. Nogironligi bo'lgan bolalarga o'z tengdoshlari bilan bir xil ta'lif olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish ko'zda tutilyapti. Inklyuziv ta'lifning Konstitutusiyaga kiritilayotgani shunday nuqsonlarga ega bolalar yakkalanib qolmasligi, aksincha, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida kamol topishi uchun muhim kafolatdir.

Shuningdek, oly ta'lif tashkilotlariga akademik erkinlik berilishi, tanlov asosida davlat hisobidan bepul oly ma'lumot olinishi, nodavlat ta'lif tashkilotlari qo'llab-quvvatlanishi to'g'risidagi qoidalar yosh avlod hayotini yaxshilash, ularning orzu-istiklalini ro'yobga chiqarish, zamonaliviy mutaxassisliklarni egallagan holda hayotda o'z o'rnni topishi va shaxsiy rivojlanishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Yangilanayotgan Konstitutusiyada inson huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini yanada yuksaltirish, chinakam xalqparvar davlatchilik asoslarini yaratish, aholi farovonligini yanada oshirish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish muhim omil sifatida qayd etilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutusiyada inson huquq va erkinliklarining muhofazasi yanada takomillashtirilmoxda. Jumladan, Konstitutusiyamiz ilgari amal qilib kelgan "**davlat – jamiyat – inson**" tamoyilini "**inson – jamiyat – davlat**" deb o'zgartirish, ya'ni eng avvalo, inson manfaatini har narsadan ustun qo'yishni maqsad qilgan.

Loyihaga asosan insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi hamda qonunlar, davlat organlari va mansabdar shaxslar faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Alovida qayd etish joiz, Konstitutusiyasi loyihasini ishlab chiqishda "**inson manfaati har narsadan ustun**" degan mezon asos qilib olingan. Shu bois bosh Qomusimiz tom ma'noda xalq Konstitutusiyasi bo'lmoqda.

Shuni mammuniyat bilan ayta olaman, bugun yurtimizda keng quloch yozgan targ'ibot tadbirlarida yosh avlod vakillari juda faol. Bunday tadbirlarda yoshlarning, ayniqsa, talabalarning tashabbuskorligi yaqqlab sezilmoqda. Qizg'in va sermazmun o'tayotgan uchrashuvlarda talabalarimiz yangilanayotgan Konstitutusiyaning muhim jihatlari, mamlakatimizhayotida tutgan o'rnii, unga kiritilayotganyangi qo'shimcha va o'zgartirishlar haqida aholiga to'laqonli ma'lumotlar berishmoqda hamda yangi tahrirdagi Konstitutusiyasi xalqimizning turmush tarzini yanada farovonlashishiga, inson qadrining yanada yuksalishiga xizmat qilishini hayotiy misollarda tushuntirib berishmoqda. Yoshlarimizning bunday faoliyati bizni qovontiradi, albatta.

**Aziz yoshlari, bir haqiqatni yodimizda tutaylik:**  
**yangilanayotgan O'zbekiston tarixida ilk marta bevosita xalq xohish-irodasiga muvofiq qabul qilinayotgan Konstitutusiyamiz mustaqil mamlakatning to'la huquqli fuqarosi sifatida farovon hayot kechirishimiz uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, sizlarning hammangizni 30-aprelda bo'lib o'tadigan umumxalq referendumida faol ishtirok etishga chorlab qolaman!**

### 79-МОДДА.

**Давлат ёшларнинг шахсий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий, экологик ҳуқуқлари ҳимоя қилинишини таъминлайди, уларнинг жамият ва давлат ҳаётида фаол иштирок этишини рағбатлантиради.**

**Давлат ёшларнинг интеллектуал, ижодий, жисмоний ва ахлоқий жиҳатдан шаклланиши ҳамда ривожланиши учун, уларнинг таълим олишга, соғлиғини сақлашга, уй-жойга, ишга жойлашишга, бандлик ва дам олишга бўлган ҳуқуқларини амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратади.**

# O'zbekimning doppisi

Ma'rufjon YO'LDSHEV,  
filologiya fanlari doktori, professor

Xalqimizda "Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar" degan maqol bor. Xalqning donoligini qara, sog'liqdan boshqa hamma narsani, ya'ni uyni ham, ot-aravani ham, mol-dunyoni ham bitta qilib "do'ppi"ga joylayapti. Mehmon kelsa, ruxsat bermay "do'ppidek osh qilyapmiz" deb mehmonni ham xijolatdan qutqarish yo'lini topyapti.

"Do'ppidekkina" deya dunyoni avaylashini qarang, ba'zan xursandchiligini "do'ppisiga sig'may ketib", "do'ppisini osmonga otib" ifodalas, chuqr o'yga tolganida "do'ppini yerga urib" yoki "do'ppini olib qo'yib" o'ylashiga nima deysiz? Eng muhim gapini "do'ppisiga qistirib" qo'yishni odat qilgan; juda maqtangisi kelib ketsa "do'ppini yarimta qilib (qiyshaytirib)" yoki "do'ppini dol qilib" kiyib, aytmochi bo'igan gapini do'ppisi bilan kuchaytiradigan xalq qayerda bor boshqa? Zarur paytlarda atrofdagilarni "do'ppini tagida odam bor" deb hushyorlikka undaydigan "boshida do'ppisi, belida belbog'i" ziyorak yigitlar yana qaysi xalqda bor?

Xullas, do'ppi or-nomus degani, do'ppi otalar ruhiga qasamyod degani. Do'ppi kiyib yurishning ma'nisi, "Men bor ekanman, ajodolar yodi o'lmaydi!" degani aslida. Yigitlar uchun sinov, qizlar uchun ko'ngil izhoridir do'ppilar. Boshingda ko'tarib yurganining do'ppi emas dunyodir, bolam.



Xalqimizda "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar", degan eski naql bor. Azaldan ustoz-shogird an'analarining ulug'lanib kelishi ham shundan. Ota-bobolarimiz o'z surriyotlarini biror kasb-hunar egasi bo'lishini niyat qilib, ustuning oldiga yetaklab borar ekan: "Shu farzandimizga hunaringizni o'rgatsangiz, shoyad bir burda nonni halollab yesa, eti sizniki, suyagi bizniki", – deb tavoze ko'rsatganlar. Zero, "Ustoz – otangdek ulug'!" degan iborada hikmat mujassam.

Ustoz etagini tutgan shogird, to ustozni ko'ngli to'lib fotiha bermaguncha, unga ergashib, hunarini "o'g'irlab" yuravergan. Vaqt kelib, shogirdining "yetilganiga" ishonch hosil qilgan ustoz, mahalla ko'y oldida unga oq fotiha berib, usta bo'lganligini ma'lum qilgan. Ustozga sarpolar kiygizib, duosini olgan kundan boshlab shogird, mustqil hayotga qadam qo'yadi.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist

## Ustoz – ulug' zot

Ustozni otaga qiyoslaydilar. Ota insonning jismoniy vujudga kelishi uchun sababchi bo'lsa, ustoz uning inson bo'lishi uchun birlamchi omildir. Manbalarda bir harf o'rgatgan ham ustoz ekani, ta'kidlanadi. Shundan bo'lsa kerak buyuk muhaddis Imom Buxoriyning mingdan ortiq ustozni bo'lgan. U o'ziga bitta bo'lsa-da, hadis aytgan odamni ustoz hisoblagan, ularni qadrlagan, ehtirom bilan tilga olgan. Bu Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning fikrlarida ham ko'rinadi: "Shu ma'noda, yoshlarimizga ta'lim va tarbiya beradigan odamlarning hurmatini joyiga qo'yish, ularga munosib sharoit yaratib berish eng dolzarb vazifamiz bo'lmog'i kerak. Chunki bola tarbiyasida murabbiy-muallimlarning javobgarligi ota-onas mas'uliyatidan aslo kam emas".

Alisher Navoiy ustozı Abdurahmon Jomiy yashaydigan mahalladan o'tayotganida, otdan tushar va piyoda ehtiyojkorlik bilan harakatlanan, har bir uchragan odamga izzat-ikrom ko'rsatar edi. Buning sababi so'ralganda, bu mahallada ustoz yashashini aytar edi. Utba ibn Abu Sufyon o'g'lining ustoziga nasihat qiladi: "Siz o'g'limni isloh qilishingiz o'zingizni isloh qilishingiz bo'lsin, zero, uning nazari sizga qaratilgan, binobarin, uning ko'zlarini ko'radigan hamma narsa siz ko'rgan yaxshi narsa bo'lsin va ular ko'radigan xunuk narsalar siz xunuk deb hisoblaydigan narsalar bo'lsin". Ustoz shogirdni farzand sifatida qabul qilish, uning baxtida o'zining baxtini, baxtsizligida o'z xatolarini ko'rish tavsija etilmoqda. Chunki shogird kamoloti ustozni ham mashhur qiladi.

Ibn Xaldun Rashid o'z o'g'llarining ustoziga quyidagliarni aytgan ekan: "Biron soat bironata foydali narsani o'rgatish imkoniyatidan foydalananmay o'tishiga yo'l qo'yang, lekin uning huquqiga tajovuz qilib, joniga tegmang va aqlini horitmang. Uni bekor qo'yang. Uni iqtidoringiz imkon bering qadar, lekin samimiyat va mehr bilan intizomga soling". Bu fikrden shunday xulosa kelib chiqadi:

– Ustoz o'z ishiga o'ta mas'uliyatl bo'lsin.

– Ustoz shogird tanlamasin. Uning ijtimoiy kelib chiqishi ahamiyatsiz bo'lsin.

– Shogird ustoziga so'zsiz itoat qillishi lozim. Aks holda, ta'lim to'laqonli bo'lmaydi.

– Ustoz uchun faqat foydali ishlardagina najot bor.

– Ustoz shogirdga o'rgangan ilmini yetkazib bera olish qobiliyati bo'lishi zarur. Chunki o'rganilgan ilmi boshqalarga ham yetkazilishi zarur.

– Shogirdga vaqtning qadrini bildirish muhim. Ulug' zotlarning: "Daryo bo'yiga o'tirgin-u, vaqtning o'tishini ko'r", degan so'zlar bejiz aytilmagan.

Me'yor shior bo'lsin. Axir, barcha ishlarning eng afzali ham uning o'tasidir. Chunki me'yordan oshgan ovqat zaharga, haddan ortiq qilingan mehnat mashaqqatga aylanganidek, aqli horiyidigan darajada o'rganilgan ilm talabgor zarariga xizmat qillishi mumkin. Rasululloh (s.a.v.) eslatib o'tganlar: "Har bir go'dak islam tabiatini bilan tug'iladi". Bu o'rinda islomdan murod poklik, soflidir. Bolalik davrida intizom yaxshi hatti-xarakatga va sog'lam xulq-atvorga o'rganishi uchun zarur. Rasululloh (s.a.v.) eslatadilar: "Birortangiz o'z farzandingizni intizomga o'rgatsangiz, bu kunda sadaqa bergandan ko'ra yaxshiroqdir".

Demak, shogirdga odobni o'rgatish sadaqa berishdan afzal. Farzandga har bir ishni o'z vaqtida sifatlari bajarishni o'rgatgan ota-ona, ustoz ham sadaqa berish, ham kelajak uchun muhim sarmoya qo'yishdek ulkan savoblarga ega bo'ladi. Farzandlarni intizomga o'rgatib, mamlakatimizdag'i turli sohalar taraqqiyotining sog'lam poydevorini yaratamiz. Buning evaziga savobga, kafolatlangan kelajakka ega bo'lish mumkin. Chunki sog'lam tarbiya qadr, izzat, ehtirom uchun eshik ochadi. Shuning uchun ham ota-ona o'z farzandiga, ustoz o'z shogirdiga sog'lam tarbiya berishga mas'ulidir. Bu maqsadga erishish yo'llaridann eng maqbuli va ma'quli Rasululloh (s.a.v.) ta'kidlagانlaridek: "Farzandlarni hurmat qilish va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantirish"dir. Zero, ikki tomonlama hurmat tashkil etilgan tarbiya natijador bo'ladi.

## Kitobni do'st biling!

Kutubxonaga yoki kitob do'koniga kirsangiz ko'zni quvnatib rang-barang kitoblar saf tortgan. Beixtiyor kitobni qo'Iga olib varaqlay boshlaysiz. Bu ishni kitob o'qishni xohlamasangiz ham qilasiz. Chunki sizning qon-qoningizda buyuk ajdodlarning ilmfanga, kitobga bo'igan mehridan bir tomchi bo'lsa ham tanangizada yashayapti.



Kutubxona-axborot faoliyati ta'lim yo'nalishi sirtqi 2-bosqich talabasi

Faqatgina o'zingizda kitob o'qish uchun xohish uyg'ota olsangiz bo'ldi. Hech kim tinimsiz kitob o'qimaydi. Kitobni shunday vaqtida o'qingki, u sizga qulay bo'lsin hamda kitob o'qiyotganiningizni boshqalar ko'rib tursin. Ayniqsa, oila davrasida o'qiyotgan kitobningizni eng qiziq joyidan ozrog'ini ovoz chiqarib o'qing yoki kitob nima haqida ekanligini aytib bering. Bu ishingizni har doim kitob o'qiyotganingizda takrorlab turing. Agar sizda farzandlar bo'lsa, ular uchun albatta kitob o'qib berishni odat qiling. Oiladan kitob o'qishni farzandlarga o'rgatmasak, keyinchalik kitob o'qishga istak susayib boraveradi.

O'ylab ko'rganmisiz, buyuklarning necha asrlar oldin qilgan ishlari halihanuz o'z qadr-qiyimatini yo'qotmagan. Bunga sabab, ular bu ishini yuzlab, minglab kitoblar o'qib chiqib, asoslab yaratgan. Bugun juda ko'plab odamlarni muvaffaqiyat qozonganligini

eshitib qolamiz. Bu omadi kelganidan emas, balki omadi kelishi uchun harakat qilganidan, izlanganidan, o'z ustida tinimsiz ishlaganidan dalolatdir. Bularning hammasi eng mashhur davlatlardayam aytilgan o'tmish va kelajak iboralaridir.

Keling, shunday ekan, farzandlaringiz va yaqinlaringiz hayotda adashmay o'z o'rnni topib, to'g'ri mulohazali inson bo'lishi uchun o'z hissangizni qo'shing. Ular uchun doimo nimalarnidir o'qib berishga harakat qiling. Hattoki, ota farzandlari uchun o'zi hikoya to'qib aytib berish natijasida, bir butun roman yozilgan holatlar ham bo'lgan. Bu roman ularni dunyoga mashhur qilgan. Kitob mutolaasi shunday narsaki, u sizni o'z olamiga olib kirib, qalbingizga taskin beradi. Ruhiy barkamollikka yetishtiradi. Kutubxonachi kasbimidan kelib chiqib, imkon qadar sizlarga o'z tafsiyalarimni berishga harakat qildim. Azizlarim, o'zingiz va yaqinlaringizga ibrat bo'lish uchun albatta kitob o'qing.



# Bahor

Yana bahor keldi. Yana olamda  
Ajib bir go'zallik, ajib bir bayot.  
Men seni qutlayman shu ulug' damda,  
Ulug' yelkadoshim, muzaaffar hayot!  
Tashbih axtarmangiz ushbu g'azaldan,  
Naqd joyda nasiya ne kerak asli.  
Ayon bir xislating bordir azaldan,  
Seni atamishlar uyg'onish fasli!  
Yellar ham uyg'ondi ishqalab kaftin,  
Oftob ham yuksaldi – tik kelar quyosh.  
Tog'lar ham yuk tashlab ko'tardi kiftin,  
Bezavol maysa ham silkitidi bosh.  
Tarnovlar bo'g'zida lola ham ko'rkan,  
Terak uchlarida izg'ir mavjudot.  
Hattoki tuyg'usiz, chirik xazon ham  
Yashil po'panakdan bog'labdi qanot.  
Hovliqma jilg'alar chopar beega,  
Qushlar qiy-chuviga to'l mish dala, bog'.  
Sening visolingdan quvonmay nega,  
Bahor, sog'initirding axir ko'p uzoq!  
Yaldo kechasiday rutubatli qish  
Soldi ruhimizga og'ir bir surur.  
Sen kelding, uyg'ondi yana sho'x olqish,  
Yig'lagan ko'zlarga tushgan kabi nur.  
Ha, mangu zavollik bo'lmash olamda  
To suyin socharkan abri naysonlar.  
Men sizni eslayman ammo shu damda,  
Manguga ko'z yumgan aziz insonlar.  
Azaliy hukmini o'qidi hayot, –  
Necha bor samo ham ko'mdi quyoshin.  
Iqboli sajdagh bo'lganlar, hayhot,  
O'zlar tuoproqqa qo'yidilar boshin.  
O'n oykim, so'nmishdir u tanish na'ra\*.  
Hamon firog'ida fig'on chekar Shosh.  
Bahor kelayotir, bosh ko'tar, qara,  
O, surur kuychisi, dongdor zamondosh.  
Hamsuhbat bo'lmadim (kim edim zotan),  
Tavob ham qilmadim gulshan makoning.  
Lekin she'r bahosi muxlisgadir tan,

\* G.G.ulom ko'zda tutilgan.

\*\* M Shayxzoda ko'zda tutilgan.

Qanday cheksiz edi ruhiy poyoning!  
Bugun-chi, ne kezar o'tli qoningda!  
Evo, unda na she'r, na may, na safo.  
Bu qanday muloqot? Ne hol? Yoningda  
Joy olmish o'zga bir suyukli daho.\*\*  
Baqiyos edi u she'r lochini!  
Xayoli bamisli Ko'ragoniydek.  
Gar tarix evrilsa, shuhrat tojini  
Unga kiygizardi Sultan Ulug'bek.  
Balxdan horib qaytgan Alisher misol  
Endi to'lg'izgandi cho'kkon dovitin.  
Ketdi bir pok siymo, teran bir xayol,  
Qoldirib dunyoda hech o'chmas otin.  
Baqo-yu bebaqo ayon buyuklik  
O'tdi so'nggi damda bosh egib quyi.  
Faqat bilganidan qolmas tiriklik,  
Mana, gulga cho'mmish Chig'atoy bo'y.  
Bu sokin elda ham ivirsir bahor,  
O'chgan xotiralar chirog'in yoqib.  
Qarayman, qabrlar yastanmish qator,  
Ma'sum binafshadan sirg'alar taqib.  
Kimningdir ko'ksiga engashgancha gul  
Marmar sag'anadan o'qib turar bayt.  
Bahor, qatra yoshim aylagil qabul,  
Onam boshiga ham bordingmikan, ayt?!

Uning oromgohi bundan olis joy,  
Olisda yotibdi mening panohim.  
Bugun ketganiga to'libdi besh oy,  
Besh oykim ko'ksimda yonadi ohim.  
Faryod chekkanim yo'q el ichra taqir,  
O'ch ham olmadim men o'z qalamimdan.  
Onajon, onajon, kechirgil axir,  
Shodlanmasin dedim birov g'amimdan.  
Dunyodan ketmasin hech kim bemahal,  
Hech kimni bosmasin nogahon o'kinch.  
Ammo o'z boshiga kelmaguncha gal,  
Onajon, tosh qalblar turarmidi tinch.  
Kuylarman xotirang balki vaqt yetib,  
Bir umr o'rtanur lekin tanda jon.  
Suronlar yo'limda turibdi kutib,  
O'zing qo'lla endi meni, onajon.  
Bugun atrofingda bahordir balki,

Balki shabnam ichra g'arqadir hazin tosh.  
Maysalar tengrangda qatordir balki,  
Lekin sen yotasani ko'tarolmay bosh...  
Bunchalar qattolsan, o sirla olam,  
Bunchalar bedilsan, bepoyon xilqat.  
Sening hikmatingning so'ngi-ku odam,  
Nahotki shunga ham qilmaysan shafqat.  
Maysa ham uyg'onar qayta qish o'tib,  
Zarracha bo'lsa ham bir himmat unga.  
Nahotki eng ulug' farzanding ketib,  
Boshin ko'tarolmay yotsa manguga.  
Onamni so'rayman sendan erta-kech,  
Qaytar deb so'rayman chok etib yaqo.  
Lekin mening dardli savolimga hech  
Javob berolmassan, o, soqov daho!  
Javob olabildi hech kim ham zotan:  
Na sulton, na gado, na shoh, na faqir.  
Kim qancha quvmasin sening ortingdan  
Bir uyum tuproqni ko'rsatding axir.  
Hayot talvasasi tinmagay, ammo  
Mangu boqiy qolur Inson va Xayol.  
Meros atalmagay barchaga fano,  
Kismat atalmagay har kimga zavol.  
Faqat o'tmish bilan yashamas inson,  
Garchand bo'lolmaydi undan hech ozod...  
Kechagi g'amini o'ylasa obdon  
Bukchayib qolardi bugun odamzod.  
Ketgan azizlarni xotirlab goho,  
Mayliga, chekaylik bir zumgina oh.  
Hayot tantanasi boshlanmish, ammo,  
Do'star, nur vasliga tashlaylik nigoh.  
Shu buyuk oftobning mukofotini  
E'zozlab qo'yaylik aytib shukrona.  
Dildan o'chiraylik g'amning otini,  
Bahor ham baxt kabi axir yagona.  
Bu kun she'ri chiqqan shoirday dunyo  
Jilmayib qo'yadi barchaga masrur.  
Temurbek gumbazin qo'ynini go'yo,  
Yoritgani kabi bir lahzalik nur.  
Dilbar kelinchakning ko'ksida g'ulu,  
Zardolu shoxiga tashlar ko'z qirin.  
Barg aro shu'lalar kaftlarmikan u...



**21 mart —**  
**O'zbekiston Qahramoni,**  
**O'zbekiston xalq shoiri**  
**Abdulla ORIPOV**  
**tavallud topgan kun**

Bahor tetapoya go'dakday shirin.  
Yuksak arg'uvonning uchida hilol  
Paxmoq bulutlarni etadi nimta.  
Qaydadir shoira kuylaydi behol:  
– Ko'nglim ham bu kecha oyday yarimga...  
Uvada kamzulda billur tugmaday  
Bulutlar ortidan boqadi yulduz.  
Qaydadir yurtini eslal ingsar nay,  
Qaydadir qo'zigul yoradi ildiz.  
Qaydadir gulshandan axtarib visol  
Yel kezar – tog'larning go'zal arvohi.  
Shoirning dirlrabo baytlari misol  
Oh tortib tizilar turnalar gohi.  
Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am,  
Toshqinlar kiradi qalbimga manim.  
Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,  
Mening O'zbekiston – dilbar Vatanim.  
Faqat sen qalbimga cho'ktirmay malol  
Charchagan ruhimga ilhom solursan.  
Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol,  
Faqat sen dunyoda mangu qolursan.

## BORI ELGA YAXSHILIG', QILG'ILKI MUNDIN YAXSHI YO'Q (Baxillik bu – illat, saxiylik bu – fazilat)

Ijod ahli uchun har bir so'z, Yaratganning bashariyat uchun ulug' in'omi. Qalamkash har bir so'zni qadrlab, undan mohirona foydalanmog'i darkor. Navoiy bobomizga so'z mulkingin sultoni, ta'rifi bejiz emas. Shoир bu haqda o'zining "Hamsat ul-mutahayyirin" asarida shunday deydi: "Molu martaba garchi jonni parvarish qilsa ham so'z kamoli hammasidan yuqoriqoqlir. Bu ko'hna falak birdaniga aylanishdan to'xtar ham. Jahon bor so'z qoladi".

Haqiqatdan ham insonning har bir amali so'zlar yositasida avloddan avlodga tillarda doston bo'lib boraveradi. Shuning uchun ham muqaddas kitoblarda odam bolasini faqat yaxshi amallar qilishga da'vat etuvchi pand-nasihatlar bitilganligi ham bejiz emas. Yaxshi amal bizning Sharqda, xususan, o'zbeklarda odob-axloq va aqli rasolikning belgisi sifatida qaralgan. Odob-axloqi etuk inson suhbatiga oshiqish ham shu sabablidir. Sirtyati go'zalning suhbatiga maftun bo'lib, odamlar uzoq-uzoq manzillardan shirin zabon suhbatdoshni yo'qlab kelishgan. Yaxshilarning suhbatidan bahramand bo'lishni o'z yaqinlariga va farzandlariga ham ilinib, ularni ham ushbu davrarga chorlaganlar.

Agar so'zlar dunyosiga nazar tashlasak, u xuddi dengizga o'xshaydi. So'zlar dengiz yanglig' mavjulanadi. Lekin o'sha dengizdan qanday durni, ya'ni so'zni tanlab so'zlash insonning fahm-farosati, bilimi, saviyasiga bog'liq. Afsuski, inson faqat yaxshi sifatlargagina ega emas. Mukammal zot faqat Allah. Nutqimizda inson fe'l-atvori, xulqi bilan bog'liq ko'plab so'zlar mavjud. Ana shunday so'zlardan biri "Baxil"dir. Baxil so'zi o'ta salbiy fe'l-atvordagi insonga nisbatan qo'llaniladi. Aslida baxillik ham bir kasallik. U tug'ma yoki hayot davomida ortitilgan bo'lishi ham mumkin.

Baxil odam molini asrash uchun qattiq azob chekishi hamda hasadchi o'z yaramas fe'l tuftyli tinch yashay olmasligi, fe'lining torligi bois umri chigallikdan iborat bo'lishi, o'z qilmishlaridan aziyat chekishi haqida juda ko'p hikoya, ertaklar o'qiganimiz va tinglaganmiz. Badiiy asar mutolaa qilgan har qanday kitobxon, albatta, o'zini o'sha asardan topadi. Adabiyotning quroli so'z ekanligining boisi ham shunda. Shuning uchun **Adabiyot** – odob so'zidan olingen bo'lib, adabni yod etmoq degan ma'noni

anglatadi. Qolaversa, insonni so'z tarbiyalaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga murojaat qilsak, ushbu so'zga shunday ta'rif berilgan: **Baxil** – arabcha so'zdan olingen bo'lib, xasis, ziqna, qurumsoq degan ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilida esa ushbu so'zga ikki xil ta'rif berilgan:

1. Birovga hech narsani ravo ko'rmaydigan; sarf-harajatni yoqtirmaydigan; xasis; qizg'anchiq. *Saxiy topsa barcha yer – baxil topsa bosib yer.* Baxil mehmonidan qochar – xasis ehsondan (maqlol).

2. O'zgani ko'ra olmaydigan, ichiqora, hasadchi rashkchi. *Baxilning bog'i ko'karmas* (maqlol).

Baxillik, avvalo o'z egasinnig ko'ngil ko'zini ko'r qilib qo'yadi. Nima uchun ko'ngil ko'zi, deb aytayapmiz? Chunki musulmonchilikda vujudning jamiki pokizaligini jamlab turadigan qismi **ko'ngil** deb ataladi. Bu haqda xalq maqollar va ibratlari so'zlar juda ko'p. Baxillikdan ko'ngil ko'zi ko'r bo'lgan odam, bu dunyoning go'zalliklarini his qilmaydi. Ko'ngliga shayton oralagan odamda qizg'anchiqlik illati ildiz otadi. Bu ildiz sekin-asta egasining bor vujudiga chirmovuqdeq yopishadi. Baxil va xasis odam o'zidagi narsani aslo birovga ilinmaydi. Alloh taolo har bir insonga mol-dunyo beradi va uni qanday yo'llarga sarf-xarajat qilishini sinab ko'radi. Qo'lidagi molu davlatni miskin va faqirlarga nasiba ajratgan kishilarning moliga baraka beradi va uni yanada ziyyoda qiladi. Aksinchal, davlatmand bo'laturib, zakot va sadaqa bermaslik, faqir va miskinlarning haqqini ajratmaslik esa, shariatimizda baxillik deb ataladi va u qattiq qoralanadi. Boqiy dunyoda baxillik daftarinining, albatta, sarhisobi bor. Unutmaylik-ki, bu dunyo: kengga keng, torga tor.



**Ma'murjon TO'RAYEV,  
O'zDSMI "Teatr san'ati"  
fakulteti dekanı**

*Anga molining hifzi ranju anu ano,  
Munga fe'lining zishti dardu balo.*

Sharhi:

*Unisiga molini saqlash – azobu uqubat,  
Bunisiga yaramas fe'l dardu balodir.*

(Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub")

Biz baxillik haqida so'z yuritib, bejiz Navoiy ijodiga murojaat qilmadik. So'z mulkingin sultoni Alisher Navoiy xalqni yaxshilik sari yetaklaganda, albatta, muqaddas Qur'oni karimda belgilab berilgan tamoyillarga va hadislarda keltirilgan sharhlarga tayangan holda o'z talqinini bayon etgan.

# Jannatim – ONAM, davlatim – OTAM!

Yo'limizdag'i chirog', ko'zimizdag'i nur, tanamizdag'i jon jannatimiz, onamizdir! Davlatimiz, otamizdir! Ota-onam bu – dunyoda farzand uchun eng katta boylikdir. Bizni oq yuvib, oq tarab, bizga dunyodagi barcha yaxshiliklarni tilaydigan inson – ota-onamizdir. Tunlari bedor uxlamasdan, alla aytib chiqqan yerdagi jannatimiz – onamizdir. Farzandim boshqalardan kam bo'imasin, deb tinimsiz mehnat qiladigan, ortimizda tog'dek suyanch bo'ladijan davlatimiz – otamizdir. Bu dunyoda ota-onamizdan bo'lak hech kim bizga yaqin do'st bo'la olmagan va bo'la olmaydi ham. Do'st-yor ham vaqtinchalik bo'lar ekan. Shunday kunlar kelar ekanki, ishonib do'st deb yurgan kimsalar, orqamizdan pichoq urar ekan.

Ota-onamiz xatolarimizni kechirib, to'g'ri yo'l ko'ssatadigan insonlardir. Biz aslida nima qilamiz? Yoshimiz ulg'ayib, hayotga mustaqil qadam qo'y'a boshlaganimizda, ularning nasihatlariga rioya qilmaymiz. Gaplariga qulqo solmaymiz, "eskicha" gap, deb o'z bilarimizdan qolmaymiz. "Unaqa emas, bunaqa", deya kamiga aql ham o'rgatamiz. Yonimizda bizga yomonlikni ravo ko'rmaydigan insonlar turganda, biz aqslislik qilib, ko'chadagi insonlarning gap-so'zi bilan ish tutamiz. Boshimiz borib devorga urilganda, xato qilganimizni anglaymiz. Mana shunaqa vaqtda biz ishongan insonlar yonimizda bo'lmaydi. Shunda ham ota-onamiz yonimizda bo'lib, boshimizni silaydi. Ularni qancha ranjitsak ham bizdan xafa bo'lismaydi. Aksincha qayta va qayta kechiraverishadi.

Hayotingiz davomida otasi yo'nesi yo'qlar bilan hech dildan suhbatlashganmisiz? ularning yuzi kulib tursa ham ko'zi kulmaydi. Ko'zlarining tub-tubida g'amalam yashirin. Chunki ularning yonida tirkak bo'luchchi insonlari yo'q. Hayot sinovlaridan qoqilganida, qo'lidan ushlab, unga suyanch bo'luchchi insonlari hayot emas. Bu insonlarning hayotga bo'lgan qarashlari ham boshqacha bo'ladi. Ular bilan suhbatlashganda, o'zimiz uchun ibrat olamiz. Avvalambor, ota-onamiz hayot ekanliklariga shukr qilib yashashni o'rganamiz. Shunday insonlar ham borki, ota-onasi hayotligida qadriga yetmaydi. Ota-onasi vafot etgandan keyin qabrini marmartosh bilan bezab, ismini zarhal harflarda yozdiradi. Bu narsa nima uchun kerak? O'zini ko'rsatish uchunmi? Mana men ota-



Nigina BAXRONOVA,  
"Kutubxona-axborot faoliyati"  
ta'lim yo'nalihi 3-bosqich talabasi

onamga shunday ehtirom ko'rsatdim, deyish uchunmi? Ota-onani tirklik chog'ida qadrlab, e'zozlamagandan keyin endigi ehtirom nimaga kerak?!

*Ey, do'stim, bu hayot ekan,  
Ming sinovda sinar ekan sabotimizni.  
Kimdir g'olib, kimdir yutqazarkan hayotda,  
Bahorda ham goho yog'ar ekan qorlar,  
Ba'zan qishda ham bahor kelar ekan.*

Hayot ham shunday bir fasl ekanki, biz kutmagan holatlar ham bo'lar ekan. Umrizmiz oqar suvdek o'tib ketmoqda. Vaqtimizni bekorchi ishlarga sarflab, aysh-u ishrat bilan o'tkazib, yaqinlarimizni yo'qtoganimizdan keyin afsuslanishimiz befoyda. Ota-onamiz hayotlik chog'ida ularni e'zozlab, ehtirom ko'rsatib, boshimizda ko'tarib yurishimiz kerak. ularning barcha umidi biz farzandlardan. Axir ota-onam, boshimizdag'i tojimiz-ku! Hayotda eng baxtli insonlar ota-onasining bag'rida ulg'ayib, ularning mehriga to'yib, duolarini olib yashayotgan insonlardir. O'sha baxtli insonlardan bittasi menman! Allohimga hamdlar va shukrlar aytaman, meni shunday baxtli insonlar qatorida ko'rganligi uchun. Bizga berilgan eng katta va ulug' mukofot bu – ota-onamizning hayotligidir. ularning so'zlariz biz uchun hamisha tirkak bo'lib kelgan. Ota-onamizning duosi bizni har qadamda asraydi. Har birimiz ota-onamizning duosini olib, ularni e'zozlab qadrlamog'imiz darkor.

## Munavvar tongim, onam!

Bolaligimizda, aniqrog'i esimizni taniy boshlaganimizda, bizga ko'pincha kattalar: "Onangni yaxshi ko'rasanmi yoki otangni?" deya savol berishardi. Tabiiyki javob aniq va bitta: onamni! Har bir farzand onasini yaxshi ko'radi, ardoqlaydi, hurmat qiladi. Zero, payg'ambarni ham ona tuqqan. Onani e'zozlash azal-avvaldan meros fazilat. Bir qo'shiqda aytiganidek: "Bu olamda ulug' zot kim, desang shubhasiz doim, onam deyman".

Ona ulug' zot bo'lishi bilan birga, o'zida hayratli mo'jizalarini mujassam etgan sir-sinoatga boy insondir. Masalan, go'dak chinqirab yig'layapti. Uni atrofdagilar qancha harakat qilmasin, tinchlantirolmayapti. Bola na aldrovg'a, na ko'yishga ko'nadi. Yumishlaridan bo'shagan ona bolani darhol bag'riga bosadi. Go'dak ona hidini olishi bilan tinchlanadi. Yana bir holat: bolanoring issig'i baland. Unga dori-darmonlar ham ta'sir qilmayapti. Shunda ona alahsirayotgan farzandining peshonasiga mehr bilan kaftini qo'yadi. Birozdan so'ng, bola orom ola boshlaydi. Ona bilan bog'liq bunday mo'jizaviy misollarni ko'plab keltirish mumkin. Inson qachon baxtli bo'ladi, qachonki, kasallikdan forig' bo'lganda, shirin joni orom olganda. Ona esa, farzandlari baxtli bo'lganda baxtni his qiladi. Ona baxti – farzandlar baxti, oila baxti, jamiyat baxtidir. Ona bu bebafo baxtni hech kimga va hech nimaga alishmaydi.

Onalar ko'p hollarda yolg'on so'zlarkan. Guvoh bo'lganlarim: "Bolam, sen yeyaver, mening qornim to'q", "Mana bu go'shtni yegin, men go'shtni uncha yoqtirmayman", "Mana bu pulni olaver, menda unga ehtiyoj yo'q", "Mana bu choyshabni yopgin, men sovgotmayapman", "Yig'lama, men kasal emasman", kabilar.

Bolaligimda tish og'rig'idan ko'p aziyat chekardim. Uxlolmasdan,

onamdan ertak aytib berishini so'rardim. Onam ham men bilan birga mijja qoqmay chiqardi. Boshimni, yuzimni silab, ertak so'ylardi. Tongda uyg'organimda, hech qanday og'riqni sezmasdim. Har gal og'riqanimda, dardimga davo onam edi. Qishda bozorga tuflida borib, menga etik xarid qiladigan onajonim! Dunyo tashvishlari, uy-ro'zg'or yushmanlari k'onglingizni cho'ktirib, ko'zingizni yoshlatganda: "ko'zimga chang kirishi shekilli, qizim", deya yolg'on gapiradigan onajonim! Onajon, bugun jajji qizingiz ulg'aydi, katta bo'ldi. Ona xavotir olmang, sizning farzandingiz kuchli inson. Sizni endi hech kimga xafa qildirib qo'yaydi.

*Bu dunyoda mehr bir taftim,  
Baxtim ham siz, sizziz omadim.  
Dunyolardan topgan jannatim,  
Ko'zingizda yosh ko'rmay ona!*

Inson ona sababli, bu yorug' jahoni ko'rish baxtiga tuyassar va musharratdir. Ona tufayli dunyoning zavq-shavqiga, quvonchlariga ko'miladi. Onasi borlar baxtlilarning baxtlisidir. Men ham baxtlilarning baxtlisiman. Dardkashim, sirdoshim, do'stim – mehribon onam doimo yonimda. Onam uymizning shamchirogi, mening munavvar tongim!

*Men jannatni orzu qilsam,  
Orzularim ushalgan.  
Armon mendan begonadir,*



Nozima ULUG'JAVA  
O'zDSMI Nukus filiali  
2-bosqich talabasi

*Baxt yo'limga to'shalgan.  
Nurga to'la koshonadir,  
Onalar bor xonodon.  
Men baxtliman, yonimdasiz,  
Jannatginam, onajon!*

Har bir farzand xoh u o'g'il bo'lsin, xoh u qiz bo'lsin, eng avvalo, onasini rozi qilmog'i darkor. Azizim, Alloh bejiz onalar oyog'i ostiga jannatni to'shamadi. Biz mehri daryo onamizga, bir tomchi mehr ulasha olyapmizmi? Ota-onaning qadrini bilish uchun yetim bo'lib tug'ilish shart emas, albatta. Yer yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, odamzod muqaddas ayol siyimosini, mo'tabar ona zotini ulug'lab, hamisha sharaflab keladi. Onalarimiz sharofati bilan Vatanimiz tuprog'i jannat bog'laridek go'zal va bebahodir. Onalar duosidan yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xonadonimiz obod. Yonimizdag'i jannatimizni asraylik, azizlar!

## Hayot haqiqatlari

### Ko'ngil

Ko'ngil mavzusi ko'nglimga yaqin. Ko'ngil juda nozik narsa ekan. Inson qadarida qanday kunlar bo'lishini oldindan bilmaydi. Hayot faqat xursandchilik, tarallabedodan iborat emas. Agar shunday bo'lgan taqdirda, hayotning mazmuni, qizig'i bo'lmashi.

Tarozining ikki pallasini misol qilaylik. Biri tepaga, biri pastga ko'tarilib-tushib turadi. Inson hayoti ham xuddi shunday. Xursandchilik kuningizda ham, xafagarchilik kuningizda ham ko'ngil istar ekansiz. Bir og'iz shirin so'z, holahvolga boshqa dunyoga tushib qolasiz. Inson shirin so'z gadosi. Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin.

*Bu uch kunlik dunyoda bir-birimizga g'animatmiz. Bir insonni ortidan yaxshi nom bilan tilga olish, eslash oliy baxt. Axir dunyo yaxshilik uchun yaralgan-ku! Mehr-muhabbat, oqibat tuyg'ularida bir-birimizga saxiy bo'laylik. Toza yurakda, pokiza niyatda har bir kunni sarhisob qilaylik. Hayotimizda nimaiki sodir bo'lmash, faqat yaxshi tomonini ko'raylik, yaxshilikka yo'yaylik. Taqdirimiz Buyuk Yozuvchi tomonidan bitilgan. Uning tarozisi to'g'ri ishlaydi. Tongga yetkazayotganiga shukr!*



Mahfuza BOBOTULLAYEVA,  
O'zbekistonda xizmat  
ko'rsatgan artist

## Yaxshilik

Yaxshilik haqida har qancha gapirigm keladi. Birgina "yaxshi inson", degan so'zning o'zi yuksak ta'rif. Yaxshi inson bo'lib yashash oson emas. Yaxshi inson mulohazali bo'ldi. "Og'ir toshni suv oqizmaydi", deganlaridek vazminlik, sabr-qanoat yaxshi insonlarga xos fazilat.

Har qanday chigal vaziyatni oqilona yechish, yaxshilikka hal etish ko'ngilning shaffofligidan, o'y-xayolning tozaligidan dalolatdir. Yaxshi inson kimdandir jabr ko'rsa ham jabrni ko'ngidan chiqazib yuboradi. Qora matoning ustiga oq mato yopadi. Taqdirdagi hech bir hodisot bejiz emas. Hamma narsani yaxshilikka yo'yish kerak. Bu dunyo – hikmatli dunyo. Har bir ishning ortida bir hikmat, bir xayr bor. Mana shu yondashuvning o'zi ham bir yaxshilik.



Asadillo NABIYEV,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
artist

Yaxshi inson qilgan yaxshiliklarini darrov unutadi. Yuzga solib minnat qilish, maydalik. Qasd olish, tubanlik. Nafsoniyatga tegish, kaltafahmlik. Yerga urish, ongsizlik. "Yaxshilik qil, daryoga tashla. Bilsa baliq, bilmasa Xoliq" degan naqlida olam ma'no bor. Yaxshi inson Alloh tomonidan mukofotsiz qolmaydi. Ko'ngil keng bo'lsin ekan. Xunuklikdan go'zallik ko'rib, yomonlikdan yaxshilik axtarib, qattiqlikdan yumshoqlikni his etib yashagan inson – asl inson. Asl aynimaydi, oltin zanglamaydi!



Gulshoda HAKIMBOYEVA,  
“Madaniyat va san’at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish” ta’lim yo’nalishi  
3-bosqich talabasi



Odiljon AHADOV,  
“Qo’g’irchoq teatr aktyorligi” ta’lim  
yo’nalishi 4-bosqich talabasi



Zilolabonu XOLIQOVA,  
“Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish” ta’lim  
yo’nalishi 3-bosqich talabasi,  
O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
a’zosi



Zeboxon XURSANDOVA,  
“Madaniyat va san’at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish” ta’lim yo’nalishi  
3-bosqich talabasi

## Assalom, Navro’z!

Bugun yangi kun,  
Navro’z...  
Ammo bizlar o’shamiz,  
Toza iymon, pok ko’ngil bilan,  
Umr bo’yi baxtga shoshamiz.  
  
Lekin sen kutmasdan bu kуни,  
Har onda yangilan, yaxshi bo’l!  
Takrorlab bo’lmaydi bugunni,  
Go’yoki, bu hayot – qaytmas yo’l.  
  
Bugun yaxshi kun,  
Navro’z...  
Yaxshilarga to’la zamonda,  
Niyat ayla, Xudodan so’ra!  
Baxtli yasha, bugun, shu onda.  
  
Bugun bayram, tantana, bazm,  
Xursandlikdan yangraydi olqish.  
Raqsiga tush, o’ynagin, axir,  
Kuy-go’shiqlar hayotga naqsh.  
  
Bugun Navro’z,  
Sumalak...  
Sabot bersin, sinov, zahmatga.  
Butun umr to’yb yashaylik,  
Sumalakdek totli ne’matga.  
  
Senga baxtlar tilay azizim,  
Bundan ortiq aytmayin bir so’z.  
Bu hayotda yashaylik yashnab,  
Har kunimiz bo’lsinda Navro’z!



E’zoza KARIMOVA,  
“Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish” ta’lim  
yo’nalishi 3-bosqich talabasi



Diyorbek UNGBOYEV,  
“Folklor va etnografiya” ta’lim  
yo’nalishi 1-bosqich talabasi

## Marhabo, O’zbekistonga!

Ostobing bir sahiy sening, osmoning bir charog’on,  
Mehridaryo, ishqil ulug’ eling yashar farovon.  
Tun-kuning teng kelsa gar, barchamiz senda shodon,  
“Yangi kun” yarashar yangi makonga,  
Keling, mehmon bo’lib, O’zbekistonga!  
  
Qozonida mehr qaynar, mehmonsevar xalqimsan,  
Agar uyda qo’noq tursa, borin berar xalqimsan.  
Eh, o’zbegin, soddiginam, g’ururligim tantimsan,  
Bayramlar yarashar ahli zamonga,  
Keling, mehmon bo’lib, O’zbekistonga!  
  
Gul-u gulzor har maskaning, soylar oqar sharqiroq,  
Insonlaring qalbi-ki har yovuzlikdan yiroq.  
Kecha ekkon ko’chatlaring, meva berar bugun, boq!  
Navro’zi olam keldi, ulug’ ona makonga,  
Keling, mehmon bo’lib, O’zbekistonga!

## Onamga

Onam uchun ne qildim,  
Nomard o’g’il noshudman.  
O’z nafsiqa qul bo’lgan,  
Berahm bir shoirmen.

Unutdim men bilmadim,  
Holin so’rab bormadim.  
Onam kutgan kechada,  
Eshik qoqib boqmadim.

Dunyo dedim, yor dedim,  
Senda ko’ngil bor dedim.  
Afsus boshim egganda,  
Endi qadring bor dedim.

Boshim silab kel ona,  
Tushlarimga kir yana.  
Yarim o’ksik ko’nglimga,  
Malham bo’lgan sen, ona!

## Xush kelding, Navro’z!

Erta tongdan qo’yosh chiqib samoga,  
Boshim uzra sochdi zarrin nurini.  
Kapalaklar o’ynashdi sho’x navoga,  
Ko’z-ko’z qildi boychechak g’ururini.

Nafosatga chulg’ansa olam doim,  
Qamrab olsa dilni bahoriy tuyg’u.  
Barcha shirin so’zli bo’lar muloyim,  
Chehralardan taralar ajib yog’di.

Qizlarning qoshida o’sma, sochlari  
Qirqkokil jamalak qilib o’rilgan.  
Qir-adirda gullar ifor sochadi,  
Qalbimiz ham ezgulikka yo’g’rilgan.

Bizga tortiq etib halim, sumalak,  
Hamsoyalar mehr bilan ulashdi.  
Navro’z hukm surdi o’lkamda demak,  
Qaldirg’ochlar qutlab tabrik yo’llashdi.

Varrak uchar ozodlikdan nishona,  
Yuksak orzu bo’lur ko’ngillarga jo.  
To’kinlikda o’tar bizning zamona,  
Izhorlarim ko’pdir qilolmam ado.

Xush kelding, o’lkamga navro’z!  
Huzur bag’ishlading dillarga yana.  
Barchamizga o’zing bergaysan to’zim,  
Boshlanjak shodiyona, tantana!

## Onalarga

Har nafas Xudoga iltijo aylab,  
Dardingizga davo so’rayman, ona.  
Bu yorug’ dunyonib yonga surib,  
O’zim sizga bo’lay doim parvona.

Ajin bosgan yuzlar bunchalar go’zal,  
Titrab boshim silar qavargan qo’llar.  
Qaynoq bag’ringizga, onajonginam,  
Bosh qo’ysam jannatning ifori kelar.

Horg’in boqib turar mungli ko’zingiz,  
Qaltirab yangraydi aytgan so’zingiz.  
Bolam, deb yashaydi xasta qalbingiz,  
Hayot og’ir yuki bukdi qaddingiz.

Poyingizni tavof aylay, onajon,  
Faqt siz ekansiz menga mehribon.  
Yaratganga yetsin ohu nolalar,  
Sog’u omon bo’lsin, barcha onalar!

Behruz O’TKIRQULOV  
“Madaniyat va san’at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish” ta’lim yo’nalishi  
1-bosqich talabasi

## “ILTIVO” hikoyasiga...

Ona, yana keldim mozoringizga,  
Sog’indim, men sizni juda sog’indim.  
Tong otdi, yugurdim, talpindim sizga,  
Bugun ham qayg’uning otiga mindim.

Yana bahor keldi, sizni eslatib,  
Har bahor kelganda yosharadingiz.  
Ketgan edi bahor meni yig’latib,  
Bahor gullarini yoqtiradingiz.

## Vatanim, Navro’zing muborak!

Yana o’sha fasl, men sevgan ko’klam,  
Tabiat uyg’onib, yashnaydi olam.  
Shirinlik ulashib quvonar xolam,  
Vatanim, Navro’zing muborak bo’lsin!

Qalblarda iliqlik, faraxbaxsh tuyg’u,  
Sayllar bo’lmoqda yuzlarda kulgu.  
Lapar kuylayotgan xushovoz kim u?  
Vatanim, Navro’zing muborak bo’lsin!

Doshqozonda tinmay qaynar sumalak,  
Qizlar sochin qilibdi-ku, jingalak.  
Tovusday tovlanib turmoqda falak,  
Vatanim, Navro’zing muborak bo’lsin!

Boshingda hurriyat quyoshing bordir,  
Tabiat jilovli gullarga boydir.  
Ul ishlarga yolg’iz Yaratgan qodir,  
Vatanim, Navro’zing muborak bo’lsin!

Bir yon katta kurash, bir yon ko’pkari,  
Askiya, aytishuv, o’lanlar bari.  
Shukr aytib quvnaydi yosh-u qari,  
Vatanim, Navro’zing muborak bo’lsin!

Bu bayram o’zgacha ko’hna bayramdir,  
Sharqona yangi yil, milliy bayramdir.  
Ozodlik bag’ringni to’ldirib tursin,  
Vatanim, Navro’zing muborak bo’lsin!

Tarixing, iforing tillarda doston,  
Seni kutar har yil butun bir jahon.  
Navro’zjon, qadamlaring qutlug’ bo’lsin,  
Vatanim, Navro’zing muborak bo’lsin!



Qarang, onajon, qabringiz uzra  
Boychechak ochilib, yashnab turibdi.  
Sizdan ahvol so’rab huv kapalaklar,  
U guldan bu gulga qo’nib yuribdi.

Onajon, esimda aytganingiz alla,  
Eshitar edi-ya butun mahalla.  
Qani hayot ham tilga kirsya-ju,  
Desa: shoirlik yo onangni tanla!

Unutsamda garchi she’ning sehrini,  
Shoir maqomidan tushsamda pastga.  
Tanlardim onamni, ona mehrin...  
Qamab qo’yishsa-da, meni qafasga.

Esingizda bo’lsa, men hazil qilib,  
“Nimangizni kitob qilaman”, derdim.  
Onajon, bu yorug’ olamga kelib,  
Sizing qalbingizga ko’p ozor berdim.

Kutib turmadi sizni, bu yorug’ dunyo,  
Farzandga mehringiz ayladingiz jo.  
Ruhingiz shod bo’lsin, deya onajon,  
Allohga ming bora qildim iltijo.

Onajon, kechiring, meni iltimos,  
Qalbingizga bergen azobim uchun.  
Bugun shoirlikka qo’ydin ko’p ixlos,  
Nomingizni qo’ydin, kitobim uchun!



# TO'YSIZ TOMOSHA

## BIR PARDА, TO'RT KO'RINISHLI KOMEDIYA

**Qatnashuvhilar:**

1. **Norxo'roz** – tovuqxona boshlig'i, 54 yosh
2. **Nortoji** – Norxo'roznинг хотини, 49 yosh
3. **Norqo'chqor** – Norxo'rozning yolg'iz (bekorchi) o'g'li, 28 yosh
4. **To'xliboy Qo'yboqarov** – Norxo'rozga quda bo'l mish
5. **Bo'ritosh** – qudaposhsho
6. **Qo'zigul** – ularning erka qizi.
7. **Bo'rivoy** – Norqo'chqorning oshnasi, bo'ydoq.

### Birinchi parda (III-ko'rinish)

O'sha hovli. O'sha joy. To'xliboy  
Qo'yboqarov: "qo'sh", "cha", "ha, harom  
o'lqur", "cha", deyman senga. Shu birdan  
ko'kni ko'rsang yopishmasang bo'lmaydimi,  
deb qo'y echkilarini haydar qo'yxonaga opkirib  
qamaydi. So'ng, Qo'zigul qizim, suv opkel. Bet-  
qo'l chaygani, deydi. Qo'zigul otasining qo'liga  
obtovadan suv quyadi. Sochiqqa yuzini artib  
uyga kiradi.

**To'xliboy:** Qizim, bitta chalob tayyorlab, bir  
mazza qilib chalob ichaylik.

**Qo'zigul:** Xo'p, hozir otajon, hozir (Bo'ritosh  
kiradi).

**Bo'ritosh:** Otasi, qizimizning ham bo'yi  
cho'zilib qopti. Boya sovchilar kep ketdi.

**To'xliboy:** Kim ekan ular?

**Bo'ritosh:** Eski hamsoyamiz, Nortoji opa  
boriydi-ku. Norxo'roz buvaning ayoli. Shu kishi  
o'g'li bilan kepti.

**To'xliboy:** Kim bilan kepti?

**Bo'ritosh:** O'g'li bilan otasi. O'g'li biram  
oqko'ngil, biram hazilkash ekanki, asti  
qo'yaverasiz.

**To'xliboy:** Qaysi o'g'li ekan?

**Bo'ritosh:** Voy, otasi, haliyam bilmaysizmi?  
O'zi yolg'iz bolasi bor-ku.

**To'xliboy:** E, surbet-ey, hali o'g'li o'ziga-  
o'zi sovchi bo'p kepti degin. Voy yaramas-ey,  
voy betavfiq, betamiz-ey. Bizning davrimizda  
to'ygacha kelin bo'l mishning ota-onasi tugul,  
hatto aka-uka, opa-singillaridan ham uyalib,  
ulardan uzoqroqda bekinib yurardik. Bu yoshlari  
qanaqa yoshlara? Bilmayman, qayoqqa qarab  
ketayapmiz o'zi? Qayodagi pandavoqi o'ziga-  
o'zi sovchilik qilsa-ya. Ey-h, tushunmayman  
umuman, tushunmayman, hozirgi yoshlarga.

**Bo'ritosh:** Enasi bilan kepti dedim-ku.

**To'xliboy:** Ovchining tozisiday enasining  
etagiga osilib kelmasayam bo'lardi.

**Bo'ritosh:** Enasining aytishicha, bular  
zamonaviy yoshlari emish. Siz aytgan gaplar  
qayoqda hozir. Bir narsa desangiz, buvam  
zamonni o'tib ketgan, deyishadi.

**To'xliboy:** Zamonaviy bo'lmay ketsin.

**Bo'ritosh:** Qo'ying, otasi, siqilmang.  
Yuragingiz og'rib qoladi-ya.

**To'xliboy:** Xo'p, sen nima deding?

**Bo'ritosh:** Men nimayam derdim, otasi kelsin  
kengashamiz, yana kelasizlar, dedim.

**To'xliboy:** O'zi qo'shilib kelmasa bo'lmas  
ekanmi. Turq-tarovati tuzukmi o'zi?

**Bo'ritosh:** Yomonga o'xshamaydi. Gap-so'zi,  
tashqi ko'rinishidan ochiqqina, binoyidekkina.  
Tegirmonga tushsa butun, olovga tushsa tutun  
chiqadigan xiliga qiyos.

(Qo'zigul bir tovoq chalob opkirib otasiga  
tutadi).

**To'xliboy:** (Chalobni simirib) Bay-bay-bay,  
biram mazza chalob bo'pti. Baraka top qizim,  
baraka top. Xo'sh-sh, ena qizim, nima gaplar?

**Qo'zigul:** Hech gap yo'q, otajon. Uyda u-bu  
ishlarni qilib o'tiribman.

**To'xliboy:** Yashavor ena qizim, yashavor.

**Bo'ritosh:** Nima javob qilamiz, otasi?

**To'xliboy:** Mana qizing bilan gaplash, unga  
ma'qul tushsa men nima derdim.

**Bo'ritosh:** Qizim, sen nima fikr dasan?

**Qo'zigul:** (Kinoyali, biroz yerga qarab) Erga  
tegaman, deb ko'zim uchib turuvdu o'zi.

**Bo'ritosh:** Qizim, endi sen ham katta qiz bo'p  
qolding. Har gapni o'ylab gapir. Yosh emassan.

**To'xliboy:** Hazillashib qizim-qizim qiztana,  
qizimga kelsin yuz tana, deb qalin ko'pchikni olib  
uzatavoraveramizda-a?

**Qo'zigul:** Gap undamas, ota.

**Bo'ritosh:** To'g'ri aytayapti, otasi. Gap  
undamas, gap bug'doyda.

**To'xliboy:** Bo'lmasa rozilik bervoruvramizmi?

**Qo'zigul:** Men bilmayman, o'zlarining  
bilasizlar. Chiqib ketadi.

**To'xliboy:** Enasi, sen qizingga yotig'i bilan  
tushuntir. Sovchilar kelsa, xo'p deyaverasan.  
Men uyda bo'lmayman...

### (IV-ko'rinish)

Qo'chqor oshnasi bilan Bo'rivoy birgalashib,  
Qo'zigulnikiga uchrashuvga kelgan. To'xliboy  
Qo'yboqarovning hovlis. Ikki do'st – Qo'chqor  
qo'yxonaning oldida, Bo'rivoy tovoq katagini  
eshigi yonida turishibdi.

**Bo'rivoy:** Qo'chqor, seni otang dakang  
xo'rozmi yo oddiyimi? Tovuqlarining ketidan  
yuguraverib bitlab ketmagandir. A?

**Qo'chqor:** O'chir ovozingni. Tumshug'ingga  
bir uring, kurak tishlarining o'pirib yuboraman.

**Bo'rivoy:** Xo-o, jo'ja-xo'rozey, ko'p kekir-  
dagingni cho'zaverma. Sen ham otangga o'xshab  
katagingni oldida qichqirishga o'rgangansammi,  
deyman. Mard bo'lsang maydonga chiq. Kerak  
bo'lsa, shoxingni qayirib, tojingdan tortqilab, pati  
yulingga xo'rozday qip tashlayman.

**Qo'chqor:** Hoy, og'zi bedarvoza, Bo'ri.  
Teringni shilib olib, ovchiga topshirvormay tag'in.

(Qo'chqor Qo'zigulga ishora uchun ketma-ket  
besh-olti marta yo'taladi).

**Bo'rivoy:** Hoy, kurk tovuqqa o'xshab  
qurqillaverma.

**Qo'chqor:** Voy, qopqonga ilinib o'lgur-ay...

**Bo'rivoy:** Senga parranda grippi  
tegmanan-ku, bu nima qilganing?

**Qo'chqor:** Bu parol, ukam. Senam o'rgan.

**Bo'rivoy:** Parolingdan o'rgildim. Paroling  
ham tovuqmiyaniga o'xshaydi.

**Qo'chqor:** Nima, och bo'riga o'xshab  
uvillasim kerakmid?

(Shu payt eshil ochilib, chiroq yorug'ida  
To'xliboy Qo'yboqarov ko'rinadi).

**Bo'rivoy:** O'ldik, otasi chiqib qoldi.

(Ikmalasi shosha-pisha qo'yxonaga bekinadi).

**To'xliboy:** Xotin, miltiqni opchiq, miltiqni!  
Qo'ya o'g'ri tushdi...

**Bo'ritosh:** (ovozini ingichkalatib) Voy o'lay,  
miltiq qayqdagi? O'g'ri deysizmi? Shu payt ham  
o'g'ri keladimi?

**To'xliboy:** Tezroq bo'l toshqulqoq, eshit-  
mayapsanmi? O'g'ri senga vaqtini aytib  
kelarmidi.

**Bo'ritosh:** Mana otasi, tayoq topdim, tayoq.

To'xliboy kaltakni ko'tarib, jon-jahdi bilan  
qo'yxonaga otiladi. Bo'ri epchillik qilib qochib  
chiqadi. Tars-turs... Qo'chqorga kaltak tega  
boshlaydi.

**Qo'chqor:** Voy dod! Voy belim, voy biqinim.  
Men o'g'ri emasman.

**To'xliboy:** Mana senga, mana. Qo'y kerakmi  
senga?.. Itvachcha!

**Bo'ritosh:** Boshiga uring, boshiga. Ayamang,  
och biqiniga yasang!

**Qo'chqor:** O'lib qolaman. Astaroq uring.

**Qo'zigul:** Ha-a, o'g'ri muttaham! Jazoingni  
oldingmi?!

**Bo'ritosh:** Iymonsiz o'g'ri. Birovlarning  
moliga ko'z olaytirasammi hali? Mana bunisi  
echki uchun.

**Qo'zigul:** Kallasiga tarsillating, kallasiga.  
O'lsin, bunaqa o'g'ri.

**Bo'ritosh:** Ha-a, urug'ingga o't tushkur.

**Qo'chqor:** Voy, jonom! Tilim osilib qoldi. O'lib  
qolaman... Asta... Sekinroq uring, Akjon!

**To'xliboy:** Men sen o'g'rivachchaning akansi bo'p  
qoldimmi (Qo'chqorning boshiga uradi. U umbaloq  
oshib ketadi. Gursillab yiqilib, hushidan ketadi).

**Qo'zigul:** (Shartta oyog'idagi kalishini echib,  
Qo'chqorning basharasiga uch-turt marta uradi)  
Mana senga, mana haqingni ol (u hushiga kelib  
ko'zlarini ochadi).

Ey, halib u kamlik qipti shekilli ma, nasibangni  
ol (kalish) bilan yana bir-ikki tushiradi. Qo'chqor  
kiprik qoqmay tek yotadi).

**Bo'ritosh:** Voy o'limasam, o'g'ri o'lib qopti-ku.  
Endi nima qilamiz.

**To'xliboy:** Baloyam urmaydi, bunaqa  
o'g'rivachchalarga. Joni toshdanam, temirdanam  
qattiq bo'ladi bundaylarning.

To'xliboy Qo'chqorni yana tepkilaydi.

Qo'chqor tepki zarbidan dodlavorguday  
bo'ladi-yu, ammo sassiz o'zini o'lganga solib  
chidab yotaveradi. Bu orada Bo'ri Qo'chqorning  
ota-onasini boshlab keladi.

**Norxo'roz:** Ey, nima gap, tinchlikmi?

**To'xliboy:** (Hansirab) Hovliga o'g'ri tushdi,  
muttaham.

**Nortoji:** Voy, bolam, ko'zing shishib  
ketibdi-ku. Quloqlaring ham qon-ku. Voy,  
o'limasam. Ey, Xudo, sho'rim qurib qopti-ku.

**Bo'ritosh:** Voy, opajon, bu sizni bolangizmida?  
Qorong'ida tanimay, o'g'ri, deb o'yablmiz.

**Nortoji:** Voy, o'ylamay keting, Bo'ritoshxon,  
sho'rimga sho'rv'a to'kilib qoldi. Voy (To'xliboya  
qarab), bolamni o'dirib qo'yibsiz-ku! Endi sensiz  
nima qilaman. Voy, bolam... Sen o'lguncha,  
men o'sam bo'lmasimi. Voy, bolam... Senga  
qiz topib, uylantirmay men o'lay, jon bolam...  
(Uvvos solib yig'laydi. Unga hammasi qo'shilib  
faryod soladi). Voy, ko'zlar ochiq ketgan, bolam!  
Chimildiq, go'shangha ko'rmay ketgan bolam!

**Bo'ritosh:** Bilanimizda shunchalikka  
bormasdi. (Eriga qarab) Oldin kimligini  
bilmaysizmi, afti-angoriga qarmaysizmi? Sizga  
qo'shilib biz ham bola bechorani turtkilab  
o'tiribmiz. Haliyam tirik qolsa, yaxshi bo'p ketsa,  
Qo'zini shu Qo'chqorga bersak, deyman otasi.  
Bolalar bizni deb baxtdan mosuvu bo'lmasligi  
kerak. Ey, Xudo, shu yigitga o'zing kuch-quvvat  
ber. Mo'jiza ro'y berib, u oyoqqa tursin...

Shu payt gap poylab, o'zini o'llikka solib  
yotgan Qo'chqor oyoqqa turadi. So'ng Qo'zi  
tomon gandiraklab yura boshlaydi. Hamma  
hayratdan dong qotib qoladi.

**Norxo'roz:** Bo'ldi-bo'ldi. Bo'lar ish bo'pti,  
bo'yozi sinipi. Endi kelishamiz.

**Bo'rivoy:** (Qo'chqorga) sevishasan-a,  
sevishasan. Nimani o'rganay parolnimi yo  
kaltak eyishnimi...


**Qo'chqor:** Jim bo'l, jigarso'xta.  
Pashshaxo'rdalik qilavermagin.

Bo'rivoy: O'Imaganingga shukr qil, oshna.  
Shu tobda senga bitta she' kep qoldi.  
Boshing yetmay bolishga,  
Oyoq tegmay kalishga.  
Yaramading ey, xumpar,  
Bitta xotin olishga...

**Qo'chqor:** Oshna men xotin emas, qiz  
olmoqchiman qiz...

Kulgi.

Hammasi to'y qilib, ikki yoshning boshini  
qovushtirishga kelishib oladi. Taqira-tuqr,  
gumbara-qars to'y qilishadi. Qo'chqor Qo'ziga  
uylanadi. Bo'ri kuyovyo'ra bo'ladi. Tengi chiqsa  
tekin ber, deganlariday Bo'ri ham xuddi  
shunday tekin joyini qidiriyapti...



**Muhtaram Presidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “2023-yilgi Navro’z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o’tkazish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra, 2023-yilgi Navro’z umumxalq bayrami mamlakatimizda “Har kuning Navro’z bo‘lsin, jonajon O‘zbekistonim!” nomli bosh g‘oya asosida umumxalq sayillari shaklida nishonlanadi.**

**Nilufar BO‘RIYEVA,  
“Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi**

Madaniyat va san‘at sohasininining bo‘lajak mutaxassis sifatida yuqorida qarorni o‘qib, donishmand xalqimizning asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan nomodding madaniy merosi – folklor haqida fikrlarimni bayon etishni maqsad qildim.

Dunyoda birorta xalq yo‘qli, turli munosabatlardan bilan ommaviy bayramlarni nishonlamasa. Milliy bayramlar tizimida bir millatning tarixi, yuksak an‘analari, yashash tarzi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Shu jihatdan ham bayramlar xalqning o‘tmishi, hoziri va kelajagining ko‘zgusi hisoblanadi. Qadriyatlar qadr topgan xalqimizning eng qadimiy mavsumiy marosimlaridan biri, Navro’z umumxalq bayramini keng nishonlab kelmoqdamiz. Navro’z sayli xalqimiz dunyoqarashi, turmush tarzi, o‘ziga xos milliy an‘analari va badiiy tafakkurining har bir yutug‘idan kuch olib, asrlar davomida yanada to‘lishib, yangilanib kelayotgan umrboqiy shodiyonadir.

Navro’z qahraton qishning achchiq zahridan qutilgan xalqning ertangi kundan umidini bayon qilib beradi. Shoir Muhammad Rizo Ogahiy ham bu manzarani “Navro’z” radifi g‘azalida quyidagicha ta‘riflaydi:

*Baland aylab quyoshga poya Navro’z,  
Ko‘tardi yer yuzidin soya Navro’z.  
Kelib fayz-u nishot-u aysh birla,  
Muhayyo qildi elga voya Navro’z.*

Navro’z bayramini sumalaksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Muhimi, sumalak pishirayotgan onaxonlarimiz qadimiy xalq qo‘shiqlarini, baytg‘azallarni aytib, bayram fayziga fayz qo’shganlar. Bu esa og‘zaki ijodning eng sara namunalarini yaralishiga turki bo‘lgan. Xalqimizning tarixini o‘chib beruvchi jamiki marosimlar, bayramlar, turfa xil mavsumiy o‘yinlar, o‘zbekning qon-qoniga singib ulgurgan qadriyatlarimizni bir so‘z bilan folklor, deb atasak adashmagan bo‘lamiz. Folklor xalqqa ma‘rifat, ilm-zoyo, ulug‘likni bermoqda. Insонning kamol topishida xalq ijodiyotining, ya‘ni folklorning o‘rnini beqiyos. Farzand tug‘ilidiki, u folklor an‘analari ta’sirida ulg‘ayadi. Buni murg‘ak go‘dakka jon ato etilgandan, onasining allasini tinglab orom olishidan ko‘ramiz. Zero, folklor bizga o‘zimizni, o‘zligimizni anglashga yordam berishi bilan qimmatlidir.

Imom G‘azzoliyning: “Ilmning avvali sukul, so‘ng eshitish, so‘ng yod olish, so‘ng amal qilish, so‘ng uni tarqatishdir”, degan hikmatli gaplari xalqimizning milliy marosim va an‘analaramizni nishonlash negizida tashkil etiladigan kuy-ko‘sish, lapar, yalla, o‘lanlarida namoyon bo‘ladi. Xalqimiz o‘zining tarbiyaviy ahamiyati va xalqning o‘tmishi, orzu-tilaklari, kechmishini folklor qo‘shiqlarida go‘zal bir tarzda anglatib kelgan.

Bugun xalqning ma‘naviy ozuqasi bo‘lgan folklor an‘analarni mamlakatimiz va jahon miyisosida asrab-avaylash maqsadida, bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, buni Vazirlar Mahkamasining qarori asosida o‘tkazilib kelinayotgan “Buyuk ipak yo‘li”, “Boysun bahori”, “Nurli navolar” kabi xalqaro folklor festivallari misolida ko‘rishimiz mumkin. Mazkur festivallar negizida xalqimiz o‘zining milliyigini jahonga namoyon qilib kelmoqda.

## Muassis:

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma‘rufjon YO‘LDOSHEV

Tahir hay‘ati:

Sobirjon JUMAYEV

Hamdam ISMOILOV

Mas‘ul kotib:

Ozoda SHOBİLOLOVA

Sahifalovchi:

Abdug‘ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,

Mirzo Ulug‘bek tumani,

Yalang‘och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.

(71) 230-28-13.

[www.dsni.uz](http://www.dsni.uz);  
[nashriyot@dsni.uz](mailto:nashriyot@dsni.uz)

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo‘limida tayyorlandi.

O‘lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.

Nusxasi – 250 dona. Narxi kelihilgan holda.

Chop etishga 10.04.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.

Navro‘z qadimiy milliy bayramimiz (fors tilidan tarjima qilindanda “yangi kun” ma‘nosini anglatadi) 21-mart kuni nishonlanadi. Ushbu kun kecha bilan kunduzning tenglashgan payti hisoblanib, bayramning kirib kelishi bilan ko‘pgina o‘zbek oilalar sumalak, halim, ko‘k somsa, palov kabi turli milliy taomlarni tayyorlaydilar. Mazkur taomlar inson organizmiga foydali bo‘igan ko‘plab vitaminlarga boy sanaladi.

## Bayram tarixiga bir nazar

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, o‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlari va ana‘nalari kuchga kirdi, jumladan, Navro’z bayramini nishonlash o‘ziga xos tusga ega bo‘ldi. Bu bayram barcha xalqlarning do‘stlik va birlik ramziga ega bo‘lgan umumxalq bayramdir. Bugungi kunda Navro’z bayrami Alisher Navoiy va Yangi O‘zbekiston maydonida tantanali ravishda nishonlanadi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Navro’zning shakllanish davri eng qadimgi zamonalardan, zardo’shtiylikning paydo bo‘lishigacha davom etgan asrlarni o‘z ichiga olgan ekan. Qadim-qadimdan Navro’z xolis niyatlari kishilarning sevimli ayyomi bo‘lib kelgan. O’sha kunlarda hatto, urush-janjalarga barham berilgan, gina-kudratlar unutilgan.

Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida, odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratalar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, ishlari gurkirab berganda meva, bir kuni taxt yasatib, unda osmonga

ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra, xuddi shu kuni Navro’z nishonlangan. Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam” asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro’z ixтиro qilinganligini bayon qiladi.

Darhaqiqat, Navro’zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki, Navro’zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatları, ya‘ni quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qat‘i nazar, navro’zni uyg‘onish bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo‘lgan. Bundan tashqari, Navro’zning chuqur ildizlari murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda, ibtidioy odamlarning dehqonchilikka o‘rganidan so‘ng, dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi. Navro’z bayrami eng qadimiy an‘anaviy bayramlardan biri ekanligi bilan boshqa bayramlardan farq qiladi.



**Nodira BAHRAMOVA,  
“Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Navro’z qadim zamonalardan bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biri va milliy bayramimizdir. Navro’z bizning milliy qadriyatimizdir. Bu bayram zamirida olam-olam ma‘no mujassam. Uning tarkibiga, ota-boborlarimizning mifologik tasavvurlaridan tortib, bugungi zamondoshlarimizning qarashlarigacha bo‘lgan ma‘naviyat olami singib ketgan bo‘lib, u insoniyat yutug‘ining har biridan kuch olib turadi.

## Yangi kun – Navro’z muborak!

Bahor – fasllar gulshani, uyg‘onish fasli. Bahor faslining ilk kunlari boshlanishi bilanoq barchanining qalbida shodlik, quvnoq kayfiyat, yuzda tabassum namoyon bo‘ladi. Shuningdek, biz intiqlik bilan kutadigan yangi kun – Navro’z bayrami shukuhni barchamizni ruhlantiradi. “Navro’z” atamasi ikki fors so‘zidan tashkil topgan bo‘lib: “nav” – yangi, “ro‘z” – kun, ya‘ni “yangi kun”, degan ma‘noni anglatadi.

Navro’z turkiy xalqlarning barcha urf-odatlari o‘zida aks ettirgan, eng ommaviy va go‘zal bayramdir. O‘zbek xalqining barcha urf-odatlari va an‘analarni o‘zida kashf etgan ushbu bayram mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, keng nishonlanib kelmoqda. Ayni damda Yangi O‘zbekiston bo‘ylab betakror Navro’z shukuhni barcha xonardonlarda kezmoqda. Bizning O‘zbekiston Davlat Konservatoriysi huzuridagi Botir Zokirov nomili Milliy estrada san‘ati institutida ham Navro’z bayrami ko‘tariniki ruhda nishonlandi. Ushbu bayram institut rahbariyati tomonidan tashkilashtirildi. Bayramda iste‘dodli talaba-yoshlar va o‘qituvchilar tomonidan namoyish etilgan go‘zal kuy-ko‘sishlar va Navro’z taomlari bo‘lmish sumalak, ko‘k somsa,



**Nigora NAJIMOVA,  
O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi MESI 1-bosqich talabasi**

halim va doimiy ravishda sevib iste‘mol qilinadigan o‘zbek palovi to‘kin dasturxonni yanada fayzga to‘ldirdi. Ushbu bayram tashrif buyurgan mehmonlar, professor-o‘qituvchilar va talabalarga quvonch baxsh etdi.

Navro’z bayrami yurtimiz bo‘ylab barcha olyi o‘quv yurtlari, kollej va maktablarda keng tarzda nishonlanmoqda. Navro’z ayyoming eng muhim omillaridan biri, mamlakatimiz bo‘ylab turli xil ijodiy kechalarning o‘tkazilishi bilan ham ahamiyatlidir. Ijodiy kechalarda xalq qo‘shiqlari, laparlar, dostonlar, kelinsalom ijob etilishi va turli xil sport o‘yinlarining namoyishi yig‘ilgan insonlarga bir olam quvonch ulashibgina qolmay, milliy qadryatlarimizga bo‘lgan mehr-muhabbatni yanada ottiradi. Bu o‘z navbatida o‘zgacha ulug‘vorlik kasb etmasdan qolmaydi.

Navro’z bayramini nishonlash qadimdan mamlakatimiz ko‘zgusidir. Nafaqat mamlakatimizning, balki qondosh xalqlarning ham umumxalq qadriyati hisoblanadi. Navro’z barcha qardosh xalqlarning do‘stlik va birlik ramziga aylanib ulgurgan bayram, desak mublag‘a bo‘lmaydi. Asrlar osha ajodolarimizdan bizgacha yetib kelayotgan Navro’z bayrami bilan bog‘liq turli xil marosimlar, o‘g‘izdan o‘g‘iza o‘tib kelayotgan qo‘sish va kuylar xalqimizning lirk merosi hisoblanadi. Shunday ekan, milliy qadryatlarimiz, an‘analaramiz o‘zida eks ettirgan Navro’z ayyomini nishonlash har birimizning burchimizdir.